



**Fuqaro bitta ariza orqali
bir nechta xizmatni
olish imkoniga ega**

2-betda o'qing



**TOZA HUDUD ORZUSI
yoxud muammo, g'oya,
taklif va yechim**

3-betda o'qing

INSON va qonun

2023-YIL
22-AVGUST
SESHANBA

№ 33 (1393)

www.hudud24.uz

@adolat_nashrlari



"ADOLAT"

"ADOLAT" milliy
huquqiy axborot
markazi nashrlariga
obuna bo'ling!



"Adolat
nashrlari"
telegram
kanalida
kuzating!

www.adolatmarkazi.uz [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official) facebook.com/hudud24official/

PATENT VAKILLARI ASSOTSIATSIYASI TUZILDI



Intellektual mulk rivojining yangi bosqichi sifatida bir qator patent vakillarining tashabbusi bilan joriy yilning 17-iyul kuni Patent vakillari assotsiatsiyasi tashkil qilindi hamda Adliya vazirligidan nodavlat notijorat tashkilot sifatida ro'yxatdan o'tkazildi.

Shunga muvofiq joriy yilning 16-avgust kuni Adliya vazirligi Intellektual mulk departamentida patent vakillari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari, blogerlar ishtirokida rasmiy uchrashuv tashkil etilib, Patent vakillari assotsiatsiyasining guvohnomasi tantanali ravishda topshirildi.

Mazkur assotsiatsiyani tuzishdan asosiy maqsad patent vakillari faoliyatini yanada rivojlantirish, ular o'rtasida hamkorlik va ma'lumot al-


mashtirish, bu orqali ularning intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi rolini oshirish hamda sohada mavjud muammolarni o'rgangan holda ularni ijobiy hal etishdan iboratdir.

Uchrashuvda patent vakillari o'z taqdimotlari bilan qatnashdilar. Xususan, Assotsiatsiya raisi Madina Tursunova "Intellektual mulk obyektlari bozorining rivojlanishi uchun davlat va tadbirkorning hamkorlikdagi samarali mexanizmini yaratishda patent vakillarining o'rni" mavzusida taqdimot qilib, mazkur birlashma tashkil etilishining bugungi kundagi ahamiyati, dolzarbligi, o'z oldiga qo'ygan vazifalari hamda kutilayotgan natijalar haqida so'z yuritdi.

Shuningdek, patent vakili Jahongir Sotiboldiyev o'z ma'ruzasida patent vakillari bilan bog'liq muammolar, amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarga e'tibor qaratib, bir qancha takliflar bilan taqdimot qildi.

Alohida ta'kidlash joizki, Patent vakillari assotsiatsiyasi yuritimizda rivojlantirayotgan intellektual mulk sohasini ilgari surish, aholining va tadbirkorlik subyektlarining hamda hattoki davlat organlarining soha yuzasidan xabardorligini oshirishga xizmat qiladi.

Assotsiatsiya kelgusida patent vakillarining huquq va manfaatlarini himoya qilishda hamda ularning faoliyatini yanada jonlantirishda, shuningdek ular tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatini oshirishda muhim o'rin egallashiga zamin yaratadi.



4-betda o'qing

O'qituvchilarning haqi undirildi



5-betda o'qing

Servitut muammoni hal etadimi?



7-betda o'qing

Firibgar talaba

MODDIY JAVOBGAR BO'LGAN XODIMLAR EGALLAYDIGAN LAVOZIM VA ISHLAR RO'YXATI TASDIQLANDI

Adliya vazirligi tomonidan to'liq moddiy javobgarlik to'g'risida o'zi bilan yozma shartnomalar tuzilishi mumkin bo'lgan xodimlar egallaydigan lavozimlar va ishlarning namunaviy ro'yxati davlat ro'yxatidan o'tkazildi.

Ushbu namunaviy ro'yxatda to'liq moddiy javobgarlik to'g'risida o'zi bilan yozma shartnomalar tuzilishi mumkin bo'lgan xodimlar egallaydigan 26 ish turi bo'yicha 177 kasb va lavozim belgilab berildi.


Jumladan, unda ombor, g'azna va boshqa bo'linmalar-

da rahbarlik ishlari, farmatsevtika sohasidagi ishlar, muhandis-kimyogarlik ishlari, kassirlik ishlari, mahsulotlarni sotish ishlari bo'yicha kasb va lavozimlar keltirilgan.

Ma'lumot uchun: Mehnat kodeksining 343-moddasida to'liq moddiy javobgarlik to'g'risida o'zi bilan yozma shartnomalar tuzilishi mumkin bo'lgan xodimlar egallaydigan lavozimlar va ishlarning namunaviy ro'yxati Kambag'alikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan tasdiqlanishi nazarda tutilgan.

2 JARAYON

MAMLAKATIMIZDA inson huquqlarini himoya qilish, fuqarolar va tadbirkorlarning qonuniy manfaatlarini ta'minlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Bu o'z navbatida turli byurokratik, sansalorlik va korrupsiyaning oldini olish, xalqimizning davlat idoralaridan rozi bo'lib yashashiga xizmat qilmoqda.



Fuqaro BITTA ARIZA ORQALI BIR NECHTA XIZMATNI olish imkoniga ega

Sonngi yillarda davlat xizmatlari ko'rsatish tizimida olib borilayotgan islohotlar natijasida aholi hamda tadbirkorlik subyektlariga qulay va tezkor davlat xizmatlarini taqdim etishning zamonaviy infratuzilmasi vujudga keldi.

Prezidentimizning 2022-yil 20-apreldagi "Davlat xizmatlari ko'rsatishni soddalashtirish, byurokratik to'siqlarni qisqartirish hamda davlat xizmatlari ko'rsatish milliy tizimini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni aholiga davlat xizmatlari ko'rsatish milliy tizimini sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarilishiga zamin yaratdi. Davlat xizmatlarini jismoniy va yuridik shaxslar uchun foydalanishga oson, qulay va shaffof shakllarda ko'rsatish ko'lamini oshirish, aholining masofadan turib elektron davlat xizmatlaridan mustaqil foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda davlat xizmatini ko'rsatishda barcha uchun teng sharoitlarni vujudga keltirish orqali inklyuziv muhitni yaratish maqsadida mazkur farmon bilan "Davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirishning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan milliy strategiyasi" tasdiqlandi.

Endilikda ushbu strategiya bilan 2026-yilgacha davlat xizmatidan foydalanish uchun murojaat qilishning qulay usullari yo'lga qo'yiladi. Markazlar va yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga yangi xizmatlarni joriy etishdan oldin ularning tartib-taomillarini soddalashtirgan holda, asosan ma'lum bir hududda eksperiment tariqasida ko'rsatiladi. Shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlarini sudgacha ishonchli himoya qilishning samarali mexanizmlari belgilanib, markazlar faoliyati samaradorligi oshirilib boriladi.

Muhim ma'lumot: Davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimini isloh qilish natijasida 184 ta markaz hamda ularning 138 ta filiallari orqali jismoniy va yuridik shaxslarga 280 dan ortiq davlat xizmatlari ko'rsatilmogda. Joriy yilning o'tgan davrida jami 6 million 432 ming 790 ta xizmatlar ko'rsatilgan bo'lsa, ularning 648 ming 575 tasi aynan Samarqand viloyatidagi mavjud davlat xizmatlari markazlari hissasiga to'g'ri keladi.

Aholi va tadbirkorlik subyektlari



ga raqamli xizmatlardan foydalanish uchun qulay sharoitlar yaratish, ishbiarmonlik muhitini yaxshilash, byurokratik tartibotlarni qisqartirish, shuningdek, davlat boshqaruvi, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini hamda hududlarni raqamli transformatsiya qilish maqsadida joriy yilning 24-may kuni Prezidentning "Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu muhim hujjat bilan nimalar o'zgardi va tizimda kelgusida qanday islohotlar amalga oshiriladi?

"3 QADAM" – YANGI TAMOIYIL

Ayni paytda davlat xizmatlari ko'rsatishning 300 ga yaqin tartib-taomillarini soddalashtirish, davlat xizmatlarini "3 qadam", "foydalanuvchi uchun moslashtirilgan", "barchasi bir mobil ilovada" tamoyillari asosida raqamlashtirish va shu kabi bir qator yangi qulayliklarni joriy etish taklif etilmogda. Buning o'ziga xos jihati esa fuqarolar va tadbirkorlar ushbu imkoniyatlar yordamida davlat xizmatlaridan ortiqcha ovoragarchiliklarsiz foydalanishadi.

Ta'kidlash kerakki, bugungi kunda onlayn foydalanish mumkin kunda onlayn xizmatlar soni 400 dan ortiqni tashkil qiladi. Jumladan, joriy yilning o'tgan 6 oyida viloyat aholisi 200 mingdan ortiq xizmatlarni aynan yagona portal orqali onlayn tarzda olishga erishgan. Bundan ko'rish mumkinki, aholining onlayn xizmatlarga ishonchi tobora ortib bormogda.

Kelgusida davlat xizmatlari res-

publikaning barcha hududlariga kirib borishi hamda aholining davlat xizmatlariga bo'lgan talabi qondirilishiga erishish maqsadida qator loyihalar, islohotlar ko'zda tutilgan. Jumladan, elektron davlat xizmatlaridan mustaqil foydalanish ko'lamini 60 foizgacha ko'tarish bo'yicha bir nechta loyihalar ustida ishlamoqda. Bu o'z navbatida davlat xizmatlaridan o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish asosida foydalanish tarmog'ini tobora rivojlantiradi. Bugungacha davlat xizmatlarini ko'rsatishning yangi shakllari joriy qilinishi natijasida 27 ta davlat xizmatini kompozit tarzda ko'rsatish yo'lga qo'yildi. Sodda qilib aytganda, fuqaro bitta ariza orqali bir vaqtning o'zida bir nechta xizmatni olish imkoniga ega.

Davlat xizmatlarini ko'rsatishda tizimga innovatsiyalar hamda sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy qilinishi, idoralaro elektron hamkorlikning kengayib borayotgani va mavjud ma'lumotlar bazasi raqamlashtirilishi hamda "fuqaro e'tibor markazida" tamoyili asosida xizmatlardan foydalanuvchilar uchun barcha zarur qulayliklar yaratilayotgani nafaqat o'z bizneslarini yo'lga qo'yish, tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagida bo'lgan yurtdoshlarimiz, balki, xorijlik investorlar va ishbiarmonlarning ham yurtimizga bo'lgan qiziqishini tobora oshirmogda.

XITOIYLIK INVESTOR: DAVLAT XIZMATLARI MARKAZIGA BORISHIM KIFOYA BO'LDI

Xitoylik investor Lin Xin Ming Samarqandda o'z biznesini yo'lga qo'ydi.

"Heng Fu Xin Stone Industry" MCHJ xususiy korxonasi bosh direktori Lin Xin Mingning ta'kidlashicha, kompaniya granit, marmar va shunga o'xshash tog' jinslarini izlab topib, qayta ishlash va bozorga olib chiqish bilan shug'ullanadi. Korxonada to'liq ishga tushgach 100 nafar fuqaro doimiy, 300 nafar mahalliy aholi mavsumiy ish bilan ta'minlanadi. Mazkur loyihaga 1 milliard 300 million dollar investitsiya kiritilgan. Kelgusida tovar aylanmasini 2 milliard dollarga yetkazish rejalashtirilgan.

– Ochig'i, O'zbekistonga investitsiya olib kirish, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishda biror to'siq yoki qiynchilikka uchraganim yo'q, – deydi Lin Xin Ming. – Buning uchun birgina davlat xizmatlari markaziga borishimning o'zi kifoya bo'ldi. Markazda men kabi investorlar uchun barcha imkoniyat mavjud ekan va men ulardan foydalanib, barcha rasmiyatchiliklarni qisqa muddatda hal etdim. Nima uchun bu markaz faoliyatini yuqori baholayapman, chunki davlat ro'yxatidan o'tishdan tortib, yer olishgacha bo'lgan masalalar osongina bitdi.

Davlat xizmatlaridan masofadan turib foydalanish tizimini takomillashtirish borasida ham samarali ishlar amalga oshirilmogda. Buning natijasida, my.gov.uz portalini hujjat ishlarimiz ancha oson va arzonga bitib, ortiqcha mehnat va vaqt sarfidan xalos bo'layotganimiz ham ayni haqiqat. Hozirgi kunda portalda 18 ta soha mavjud. Bugungacha kelib my.gov.uz xizmatlari ommabop mobil ilovalardan ham o'rin olgan. Jumladan: "Zoomrad", "Agro mobile", "Anor mobile", shuningdek, "Joyda", "PayMe" singari mobil ilovalarda 26 turdagi davlat xizmatlari ko'rsatilishi yo'lga qo'yilgan. Qisqa muddat ichida mazkur mobil ilovalar orqali fuqarolarimiz 130 mingdan ortiq elektron davlat xizmatlaridan foydalanishgan. Xo'sh, davlat xizmatlaridan onlayn foydalanishning afzalligi nimada? Birinchi navbatda bu 10 foiz chegirmaga ega bo'lish, hujjatlarni QR kod bilan himoyalash, xizmatlardan navbatlarsiz onlayn foydalanish hamda ariza holatini istalgan vaqtda kuzatish va boshqa afzalliklarni beradi.

Dunyoning rivojlangan davlatlarida allaqachon odamlar sog'lom va baxtli hayot kechirish, uzoq umr ko'rish uchun ona tabiat bilan munosabatni yaxshilashga intilishmoqda. Buning uchun zarur va qat'iy choralar ham ko'rilgan, hatto tabiatga nisbatan beshafqatlik qilganlik uchun qat'iy javobgarlik choralarini ko'rilishi belgilangan. Har bir davlatning chiqindini qayta ishlash bo'yicha o'ziga xos tajribasi bor. Masalan, ayrim davlatlarda chiqindi poligonlariga faqatgina qayta ishlangan chiqindi qoldiqlariga tashlanadi.

Bizda esa bu yo'nalish maqtanarli darajada emas. Odatda, bizda shahar aholisining kundalik chiqindisi qishloq hududlaridagi chiqindi poligonlariga jo'natiladi.

Qishloq odamlari baribir boshqacha. Tug'ilib-o'sgan qishlog'idagi muammolarni hal qilaman deb kirmagan idorasi qolmagan mahalla faoli Abror Norbekovni kuyunchakligi uchun nafaqat tuman-dagi, balki viloyatdagi kommunal soha mas'ullari ham yaxshi tanishadi. Ekologik muammolar ko'paygan, ayniqsa, suv taqchilligi bo'lgan bir zamonda miroblik qilish oson emasligini hammamiz yaxshi bilamiz. Savobli ish deb arzimamiz maoshga ariqdagi suv taqsimotini qo'lga olgan, miroblikni joyiga qo'ygan qishloqdosh akamizning ichi to'la dard. Dard bo'lgan-dayam o'z dardi, oilasining dardi emas, qishloqdoshlarining dardi.

Chinoz tumanining "G'ayrat" mahallasi faoli Abror Norbekovning mahalliy deputatga yozgan murojaatida shunday so'zlar bor:

– Shaxsan o'zim uchramaganim Prezident qoldi. Tuman, viloyat hokimligiga, Ekologiya qo'mitasigacha bordik. Doim qop-qop va'da berishadi. Natija yo'q! Prezidentimiz xalqni rozi qilaman deyaptimi, amaldorlar ham qishloq odamlari bilan gaplashishga, hisoblashishga majbur.

O'zim klasterda ishlayman, miroblik qilaman. Qachongacha birov tashlagan chiqindining hidini hidlaydi bizing qishloq odamlari?! O'zim shu muammo bo'yicha qancha joyga murojaat qildim, natija bo'lmayapti. Tumanimizni bor chiqindisi keladigan chiqindi poligonida yovvoyi itlar, chiyabo'rilar ko'paygan. Yangiyo'ldan ham mashina-mashina chiqindi olib kelib to'kilyapti, isbot-dalillarim, videosisgacha bor. Chiqindi titkalgan bitta qush qancha allergiya, kasallik tarqatadi. Biz miltiq ko'tarib ularni o'tib tashlolmasak, bizda unaqa huquq yo'q! Qozog'istondan bir qattiq shamol esa, chiqindini ichidagi salafanni odamlarni hovlisigacha uchirib boryapti. Har kuni "Toza hudud" degan o'ndan ortiq mashina qishlog'imizdagi poligonga keladi. Top-toza hududimiz notoza hududga aylanib bo'ldi. Biz esa toza hududni orzu qilamiz! Sababi, bu joyga qishlog'imiz odamlari umuman chiqindi tashlashmaydi, lekin jabrini tortishadi. Keyingi yillarda qichima, terida toshmalar, sariq kasal ko'paygan. Icha-yotgan choyingga tushib qoladigan darajada pashsha ko'p. Hammasi tozalik bo'lmaganidan bo'layapti. Xullas, bu chiqindixonani yopish kerak, qishloqda hamma odam shuni xohlaydi.

QAYTA ISHLAYDIGAN TIZIM KERAK!

Yaqinda internet tarmog'i orqali tarqatilgan bir xabarga ko'zim tushdi. "Endi chiqindilar musiqa sadolari ostida olib ketilishi mumkin" deyiladi xabarda. Madaniyat vazirligi shu ishni qilsa, tushunsa bo'lar, balki, lekin Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim



HAYOT insonga bir marta beriladigan shirin ne'mat. Unda qanday yashash o'zimizga bog'liq. Birovga zarari tegmaydigan, beozor inson bo'lish qanday yaxshi. Lekin goho o'zimiz bilib-bilmay boshqalarga, hatto ona tabiatga ham zarar yetkazamiz.

TOZA HUDUD ORZUSI

yoxud muammo, g'oya, taklif va yechim

o'zgarishi vazirligidan bunday tashabbus chiqqani hayratlanarli. Xabarning davomini o'qib, bundan ham g'alati holga duch kelasiz. "Toshkent, Qashqadaryo va Buxoroda chiqindilarni olib ketishning yangi usuli sinovdan o'tkazilmoqda. Chiqindi tashuvchi mashinalarning har kuni ertalab aholi xonadonlaridan chiqindi olib ketish uchun baland signal chilib kelishi aholining e'tirozlariga sabab bo'layotgan edi.

Buni inobatga olgan holda Ekologiya vazirligi tashabbusi bilan chiqindilarni signal usulida emas, yengil musiqa sadolari ostida olib chiqish yo'lga qo'yildi.

Hozirda Toshkent, Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarida bu usul tajribadan o'tkazilmoqda. Har bir hududga bit-tadan maxsus mashina ajratilib, aholiga chiqindi tashuvchi mashina kelgani haqida signal emas, musiqa orqali xabar berilmoqda." deyiladi xabarda. Undan ko'ra, tartibsiz chiqindi poligonlari tartibga keltirilsa, ayniqsa, yechimini kutib yotgan muammolar hal qilinsa, odamlar rozi bo'lar edi. "Qomi och bilan qomi to'qning nima ishi bor" deganlaridek, mas'ul sohada ishlasa ham, chiqindi to'kilgan poligonlardagi bugungi haqiqiy ahvolni joyiga chiqib o'rganmagan mas'ullar aholining dardini qaydan tushunardi?!

To'g'ri, respublikamizning ayrim hududlaridagina chiqindini qayta ishlash yo'nalishida faoliyat yo'lga qo'yilgan. Lekin bu yo'nalish ommalashtirilmaydi negadir. Qizig'i, chiqindini musiqa sadolari ostida yig'ish fikri qaydan keldi ekan-a?! Undan ko'ra murojaat qilgan norozi aholiga chiqindini to'g'ri, tartibli topshirish ekologiya uchun qanchalar foydali ekani tushuntirilsa, buning uchun maxsus belgilangan idishlar tayyorlanib, birinchi qadamdayoq chiqindi saralab olib ketilsa, chiqindi topshirish amaliyoti to'g'ri yo'lga qo'yilsa, chiqindi tashlash madaniyati shakllantirilsa, foydali bo'lardi, nazarim-

da. Chiqindini saralab topshirish ommalashtirishga arzigulik g'oya bo'lar edi!

Bu boradagi takliflar esa, qo'llab-quvvatlanmaydi, g'oyalar g'oyaligicha qolib ketaveradi. Mana bir jonli misol – noan'anaviy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi innovatsion ta'lim va ishsiz aholini ish bilan ta'minlashga yo'naltirilgan g'oya ustida ishlagan Toshkent davlat texnika universitetining professor-o'qituvchilari ikkilamchi xomashyolarni saralash orqali chiqindini toza xomashyoga aylantirish, uni qayta ishlash taklifini bildirishgan va bu taklifni rasmiy ko'rinishda o'sha vaqtlardagi Ekologiya qo'mitasiga taqdim qilishgan. Bunga ham ancha vaqt bo'ldi. Lekin bu taklif negadir qo'llab-quvvatlanmadi. Oradan bir muddat o'tib, taklif qayta ishlab chiqish uchun g'oya mualliflariga qaytarilgan. Sababi, mablag' masalasiga kelib taqalgan. Agar amalga oshirilsa, mamlakatimiz iqtisodiyoti-ga har kuni salmoqli foyda keltiradigan, uzog'i bir-ikki oyda o'z faoliyatini to'la oqlaydigan 2 milliard so'mlik g'oya uchun 50 million so'm ajratilishi mumkinligi aytilganiga nima deysiz? Aslida bu g'oya qanday edi?! O'zi g'oyaning nima afzalliklari bor?! Shu haqda suhbatlashish uchun g'oya mualliflari bilan uchrashdik.

"CHIQUINDI ASLIDA OLTINGA TENG MANBA"

– Chiqindi poligonida yoqimsiz hid taralishiga asosiy sabab organik modda qoldiqlaridir, – deydi Toshkent davlat texnika universiteti "Markshheyderlik ishi va geodeziya" kafedrasining dotsenti, ilmiy-innovatsion markaz direktori Botir Azimov biz bilan suhbatda. – Organik moddalar aralashgan materiya qoldiqlarini ajratib, maxsus o'ra qazilib, usti germetik yopilsa, o'raga organik moddalar yuborilsa, bu moslamada 7-10 kun davomida biogaz shakllanadi.

Biogazlarni esa qolgan ikkilamchi

xomashyolarni qayta ishlash ishlariga sarflash mumkin. Agar materiya qoldiqlarining mohiyatini bilmay, ularga qarshi kurashsak, ular majburiy ravishda xavfli ekologik massaga aylanadi!

Ulardan foydalanish asoslari o'qib-o'rganilsa, birinchidan, mahalladagi ishsizlar yoki kam daromadli fuqarolar ishli bo'ladi. Ikkinchidan, bugungi kunda bu yangi yo'nalish bo'yicha mutaxassislar ertaga boshqa chiqindi poligonlarida ish yurituvchi bo'lib ko'tariladi. Agar alohida mehr berilsa, chiqindi poligoni zararli joy emas, yangi iqtisodiy daromad manbaiga aylanadi.

Agar aynan muammoli poligon hududlari aholisi, masalan, siz aytayotgan Chinoz tumani "G'ayrat" MFYdagi vaqtincha ishsiz va kam daromadli fuqarolarning hech bo'lmasa 10 nafari bu ishni qilishni istasa, "Antropogen tabiatli foydali sochilmalarni qayta ishlash texnika va texnologiyasi" nomli innovatsion o'quv markaziga qabul qilar edik.

Qisqa o'quv kursi, taxminan 15 kun, uzog'i bilan 20 kun davomida ularni o'z xohishlariga ko'ra shisha, metall, plastmassa, qog'oz-karton va hokazo materiya qoldiqlarini qayta ishlash mutaxassisi degan sertifikat olishga ham sharoit yaratib beramiz.

INNOVATSION G'OYANI KIM QO'LLAB-QUVVATLAYDI?

Suhbatdoshimizning kuyinganicha bor, yangi innovatsion g'oyani qo'llab-quvvatlash taklifi karantin sharoitida bildirilgan bo'lmas-da, xaligacha g'oya g'oyaligicha turibdi. Noyob ichki resurslar bilan mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish taklifi bilan chiqqan ziyolilarning g'oyasi degan qo'llab-quvvatlanmadi? Suhbatdoshimizning aytishicha, chiqindilar 10 turga ajratilib, qayta ishlash bo'yicha taklif berilgan. Toshkent shahri chiqindilari tarkibidagi ikkilamchi xomashyolar quyidagi sinflarga ajratilgan bo'lib, o'simlik va oziq-ovqat qoldiqlari, hayvon qoldiqlari, mato va paxta buyum qoldiqlari, oyoq kiyim qoldiqlari, qog'oz-karton qoldiqlari, yog'och buyum qoldiqlari, oyna va shisha buyum chiqindilari, sintetik mahsulot qoldiqlari, metall buyum qoldiqlari, tabiiy chiqindilarga ajratilib, kunlik, oylik, yillik hisobdagi minimal qiymati tahlil qilingan.


Shahar tashqarisidagi chiqindi poligonlari hududida chiqindilarni qayta ishlashni yo'lga qo'yib, yangi innovatsion ta'limga asoslanib, ikkilamchi xomashyolar saralab olinib, ulardan samarali foydalanilganida ham, bu jarayon tuganmas iqtisodiy daromad manbaiga aylanadi.

Misol tariqasida aytadigan bo'lsak, agar bir kilogramm materiya qoldig'i eng kichik qiymat bo'yicha 100 so'mdan hisoblangan taqdirda ham, respublika makroiqtisodiyotida kuniga 3,8-3,9 milliard so'mga teng qiymatga ega bo'lgan antropogen tabiatli foydali sochilmalar vujudga keladi.

Agar tashkil etiladigan noan'anaviy oilaviy yoki shaxsiy tadbirkorlikda 1 ishchi kun davomida o'rtacha 50 kilogramm mahsulotni qayta ishlay oladi, desak, mamlakat makroiqtisodiyotida 767 ming 123 tadan 794 ming 120 tagacha yangi ish o'rinlari shakllanadi.

Oddiy matematik hisob-kitoblarga ko'ra, taklif etilayotgan innovatsion ta'lim mamlakatimiz makroiqtisodiyotida kuniga 4 milliard so'mgacha qo'shimcha daromad manbaini shakllantiradi. Eng muhimi, 800 mingtagacha yangi noan'anaviy ish o'rinlari tashkil etilishiga imkon beradi.

4 MUROJAATLAR ADLIYA NIGOHIDA

O'QITUVCHILARNING
HAQI

undirildi

SARIOSIYO tumanidagi Xojaasmin qishlog'ida joylashgan 77-sonli umumta'lim maktabi o'qituvchi va xodimlarining Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-sentabrdagi qarori bo'yicha imtiyozlardan foydalanishda amaliy yordam so'rab qilgan murojaati tuman adliya bo'limi tomonidan o'rganilganda, tumandagi Xojaasmin qishlog'i dengiz sathidan 2 ming metr balandlikda joylashgan bo'lsa-da, mazkur umumta'lim maktabi pedagog va xodimlarga qo'shimcha ravishda ustama haq to'lanmasdan kelingani aniqlandi.

Vaholanki, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-sentabrdagi qarorining 1-ilovasida "Tabiiy-iqlim va maishiy sharoitlari og'ir va noqulay bo'lgan joylarda ishlovchi xodimlar mehnatiga haq to'lashga tuman koeffitsiyentlarini, shuningdek, ularga har yili beriladigan qo'shimcha ta'limning eng kam muddatini belgilash va qo'llash tartibi to'g'risida"gi nizomga asosan tabiiy-iqlim sharoitlari og'ir va noqulay bo'lgan joylar ro'yxatida baland tog'li tumanlarda ishlaganlik uchun barcha iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning xodimlari uchun dengiz sathidan 2 ming 1 metrdan 3 ming metrgacha balandlikda mehnatga haq to'lashga tuman koeffitsiyentlari bo'yicha ustamalar miqdori 30 foiz qilib belgilangan.

Shunga ko'ra, tuman adliya bo'limi tomonidan 77-sonli umumta'lim maktabi o'qituvchi va xodimlarining manfaatini ko'zlab fuqarolik ishlari bo'yicha Sariosiyo tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritildi va sud qaroriga ko'ra, 36 nafar pedagog va xodimlarning 230 million so'm qo'shimcha ustama pullari undirib berildi.



Latif RAYIMOV,

Sariosiyo tuman adliya bo'limi boshlig'i



VAXTA USULIDA ISHLASHGA

KIMLAR JALB QILINMAYDI?



MEHNAT kodeksining 465-moddasida Vaxta usulida ishlash to'g'risidagi umumiy qoidalar ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra, vaxta usulida ishlash xodimlarning doimiy yashash joyiga kunlik qaytishini ta'minlash imkoni bo'lmagan taqdirda, ularning doimiy yashash joyidan tashqarida mehnat jayronini amalga oshirishning alohida shaklidir.

Vaxta usulida ishlash ish joyi xodimlarning doimiy yashash joyidan yoki ish beruvchining joylashgan yeridan sezilarli darajada uzoqda joylashganida tabiiy sharoitlarga ega bo'lgan hududlarda ishlab chiqarish obyektlaridan foydalanilishini ta'minlash maqsadida, shuningdek, boshqa ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun qo'llaniladi.

Vaxta usulidagi ishlarga jalb qilinadigan xodimlar ishlarni bajarish obyektida bo'lish

davrida ish beruvchi tomonidan maxsus tashkil etiladigan, mazkur xodimlarning ishlarni bajarishi vaqtida hayot faoliyatini va smenalari o'rtasida dam olishini ta'minlash uchun mo'ljallangan binolar va inshootlar majmuidan iborat bo'lgan vaxta shaharchalarida yoxud shu maqsadlar uchun moslashtirilgan va ish beruvchining hisobidan haq to'lanadigan yotoqxonalarda, boshqa turar-joylarda yashaydi.

Agar vaxta obyektida mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi xodim har kuni o'z doimiy yashash joyiga qaytish imkoniyatiga ega bo'lsa, bunday ishni bajarish vaxta usulida ishlash hisoblanmaydi.

Ishning vaxta usulini qo'llash tartibi ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

Ishni vaxta usulida tashkil etish to'g'risidagi namunaviy nizom Vazirlar Mahkamasiga tomonidan Ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha respublika uch tomonlama komissiyasi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

Mehnat kodeksining 466-moddasiga asosan Vaxta usulida bajariladigan ishlarga quyidagilar jalb qilinishi mumkin emas:

o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan xodimlar;

homilador ayollar;

uch yoshgacha bo'lgan bola parvarishini amalga oshirayotgan ota-onadan biri (vasiy);

tibbiy xulosaga muvofiq vaxta usulidagi ishlarni bajarishga qarshi ko'rsatmalar bo'lgan shaxslar.



Sherzod ABDULLAYEV, Qiziriq tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

O'Z VAQTIDA OLINMAGAN PENSIYANI
TO'LASH MUDDATI UZAYTIRILADI

PREZIDENT farmoni bilan 2022-2026-yilgacha mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlangan. Davlat dasturiga ko'ra, 2023-yil 1-iyuldan barcha davlat organlari va tashkilotlarida "Aholi va tadbirkorlarga servis sifatini oshirish" chora-tadbirlari belgilandi. DXM orqali ko'rsatiladigan davlat xizmatlari soni 300 taga, YAIDXP (my.gov.uz) orqali ko'rsatiladigan xizmatlari soni esa 570 taga yetkazildi.

Shuningdek, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari (nogironligi bo'lgan shaxslar, og'ir bemorlar, keksalar va boshqalar) ga migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish sohasidagi davlat xizmatlari doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyiga chiqish orqali ko'rsatilgan xizmat uchun qo'shimcha to'lov undirilmaydi. Elektr, gaz va suv sarfi hisoblagichlarini qiyoslashdan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatlari proaktiv tarzda (fuqaro murojaatini kutmasdan, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotning o'z tashabbusi bilan) ko'rsatiladi.

2023-yil 1-sentabrdan aholi va tadbirkorlarga subsidiya ajratish bilan bog'liq barcha xizmatlar bosqichma-bosqich "Aholi va tadbirkorlik subyektlariga subsidiya ajratishning yagona elektron platforma"sig'a o'tkaziladi.

2024-yil 1-yanvardan pensionerga hisoblangan, lekin o'z vaqtida olinmagan pensiyani to'lash muddati 12 oydan 24 oygacha uzaytiriladi.

Bundan tashqari, dasturga ko'ra, 2023-yil 1-apreldan nogironlik idoralari elektron ma'lumotlar almashinuvi asosida nogironlik belgilari aniq ko'rinib turgan, anatomik nuqsonlari bo'lgan, shuningdek, noxush klinik prognozga ega kasalliklar va asoratlarda fuqarolarning ishtirokisiz belgilanishi nazarda tutilgan. Shuningdek, dasturga ko'ra, 2023-yilda "Yangi O'zbekiston" massivlari va 161 ta boshqa massivlarda yangi uy-joylar qurishning yillik hajmlari 90 mingga yetkaziladi. Aholini bozor tamoyillari asosida ipoteka kreditlari orqali mulk huquqi asosida Toshkent viloyatida tajriba-sinov tariqasida "Mening birinchi uyim" dasturi ishlab chiqilib, amalga oshirilishi belgilangan.

Sarsongarehilikka
BARHAM berildi

ADLIYA organlarining asosiy vazifalaridan biri bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga asosan ularning buzilgan huquqlarini tiklash, qonunbuzilish holatlarining oldini olish borasida Surxondaryo viloyat adliya boshqarmasi tuman, shahar bo'limlarida yetarlicha tajriba to'plangan.

Xususan, Sherobod tumanida yashovchi fuqaro R. Abdujalilova ham Sherobod tuman qurilish bo'limining 2019-yil 20-avgustdagi xatiga asosan tumanning "G'o'rin-Gilambob" mahallasi hududida joylashgan o'ziga tegishli 4000 m² maydonda joylashgan oshxonasi binosi buzib tashlangani, biroq oradan 4 yil vaqt o'tgan bo'lishiga qaramasdan, kompensatsiya puli to'lanmay kelinayotganidan norozi bo'lib, tuman adliya bo'limiga shikoyat qilgan.

Murojaatni o'rganish natijalariga ko'ra, tuman hokimligidan fuqaro R. Abdujalilovaga buzilgan do'kon uchun to'lab berilmagan kompensatsiya puli undirib berilishi yuzasidan fuqarolik ishlari bo'yicha Sherobod tumanlararo sudiga kiritilgan da'vo arizasiga asosan tuman hokimligidan murojaat egasi foydasiga 491 million 690 ming 822 so'm miqdorida kompensatsiya puli undirilishi belgilandi.



Otabek OYBEKOV, Oltiariq tuman adliya bo'limi davlat xizmatlari markazi mas'ul xodimi



Sunnatillo ABDURASULOV, Surxondaryo viloyat adliya boshqarmasi boshlig'i

Xodimlarning ustamasi

undirib berildi



SHUMANOY tuman adliya bo'limi tomonidan o'tkazilayotgan sayyor qabullar davomida fuqarolardan tushayotgan murojaatlarning joyida o'rganilib, ijobiy hal etilishi aholining adliya organlariga bo'lgan ishonchini yanada oshirmoqda.

Jumladan, tuman o'rmon xo'jaligi bo'limining 5 nafar xodimi ish haqiga qo'shimcha ustama puli to'lab berilmayotganidan norozi bo'lib qilgan murojaati tuman adliya bo'limi tomonidan o'rganib chiqildi. O'rganish davomida Vazir-

lar Mahkamasining 2017-yil 19-iyuldagi qarorining 7-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi va uning tizimiga kiruvchi tash-

kilotlar xodimlari mehnatiga haq to'lash va ularni moddiy rag'batlantirish tartibi to'g'risida"gi nizomda belgilangan ustama puli, ya'ni 53 million 23 ming 900 so'm miqdordagi mablag' murojaat egalariiga asossiz to'lab berilmayotgani aniqlandi.

O'rganish natijalariga ko'ra, ushbu ustama pullarini undirish maqsadida tuman adliya bo'limi tomonidan fuqarolik ishlari bo'yicha Qo'ng'iroq tumanlararo sudiga davo arizasi kiritildi va murojaat egalariining foydasiga qo'shimcha ustama pullari undirib berildi.



Erkinbay KANNAZAROV,
Shumanoy tuman adliya bo'limi boshlig'i



Advokatlik faoliyatini LITSENZIYALASH tartibini bilasizmi?

VAZIRLAR MAHKAMASINING 2022-yil 5-avgustdagi qarori bilan "Advokatlik faoliyatini maxsus elektron tizim orqali litsenziyalash tartibi to'g'risida" nizom tasdiqlangan bo'lib, advokatlik faoliyatini "Litsenziya" axborot tizimi orqali litsenziyalash, litsenziya talab va shartlariga rioya qilinishini nazorat qilish hamda ularning hisobini yuritish tartibini belgilaydi.

Bunda litsenziyalanadigan ixtisoslik turlari:

- fuqarolik va iqtisodiy sud ishlarini yuritish,
- ma'muriy va jinoiy sud ishlarini yuritish.

- Ariza beruvchi toifasi - jismoniy shaxs - O'zbekiston Respublikasi fuqarolari (oliy yuridik ma'lumotga hamda yuridik mutaxassislik bo'yicha kamida ikki yil ish stajiga ega bo'lishi, shuningdek, advokatlik tuzilmasida kamida uch oy stajirovka o'tagan, malaka imtihonini muvaffaqiyatli topshirgan bo'lishi talab etiladi).

- * Litsenziyalovchi organ - Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari hisoblanadi.

- * Litsenziyani olish uchun taqdim qilinadigan hujjatlar:

- Ariza. Arizada quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

- talabgorning familiyasi, ismi, otasining ismi;

- jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR);

- telefon raqami, elektron pochta manzili (mavjud bo'lganda);

- doimiy yashash joyi;

- talabgor amalga oshirmoqchi bo'lgan ixtisoslik turi.

Talabgorning malaka imtihonidan o'tganligi to'g'risidagi ma'lumotlar tegishli Advokatlar palatasi huzu-

ridagi Oliy malaka komissiyasi va Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari tomonidan talabgorning malaka imtihonidan o'tganidan so'ng darhol "Litsenziya" ATga kiritiladi.

- * Arizani ko'rib chiqish uchun to'lanadigan yig'im miqdori - bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi.

- * Litsenziya berilganligi uchun davlat boji miqdori - bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari.

- * Arizani ko'rib chiqish va qaror qabul qilish muddatlari - 10 ish kuni.

Talabgorning xohishiga ko'ra, advokatlik faoliyatini olish uchun litsenziya berish haqidagi ariza bilan bir vaqtda advokatlik byurosini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun so'rovnoma ham to'ldirilishi mumkin. So'rovnoma va unga ilova qilinadigan hujjatlar qonunchilikka muvofiq belgilanadi.

Qaror qabul qilingandan so'ng real vaqt rejimida litsenziyani berish yoki litsenziya berishni rad etish haqida qaror qabul qilingani to'g'risidagi xabar-nomani talabgorga yuboradi.

Talabgor 3 oy mobaynida O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan miqdorda davlat bojini to'laydi.

Davlat boji to'langanidan so'ng avtomatik tarzda talabgorga elektron shaklda QR-kod (matrik shixrlxli kod) qo'yilgan litsenziyani yuboradi.



SERVITUT MUAMMONI HAL ETADIMI?

– YAQINDA yangi hovli-joy sotib olib, unga ko'chib o'tdim. Uyimni gaz tarmog'iga ulash uchun gaz quvurlarini o'z hududimdan olib kirishga hech qanday imkoniyat yo'qligi sababli qo'shningim hovlisidan olib o'tmoqchi bo'lib, ruxsat so'raganimda, qo'shningim qarshilik qildi. Shu holat to'g'rimi?

A. SHODMONOV, Davlatobod tumani

– Ma'lumki, erkin fuqarolik jamiyati har bir fuqaro mulkka ega bo'lish, undan foydalanish va tasarruf etish huquqiga ega bo'lishi bilan farqlanadi. Ushbu vaziyatda siz gaz quvur tarmoqlarini o'tkazishni talab qilayotgan yer uchastkasi o'zganing tasarrufidagi hudud hisoblanadi.

Biroq, qonunchilikda ikkinchi tarafning ham huquq va manfaatlarini ko'zda tutilgan bo'lib, Fuqarolik kodeksining 173-moddasida servitut, ya'ni fuqaroning o'zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi haqida bayon etilgan.

Unga ko'ra, ko'chmas mulk (yer uchastkasi, boshqa ko'chmas mulk) egasi qo'shni yer uchastkasining egasidan, zarur hollarda esa – boshqa yer uchastkasining egasidan ham o'zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish (servitut) huquqini berishni talab qilishga haqlidir.

O'zganing yer uchastkasidan piyoda va transportda o'ta olishni ta'minlash, elektr uzatgich, aloqa va quvur liniyalarini o'tkazish va ulardan foydalanish, suv bilan ta'minlash uchun, shuningdek, ko'chmas mulk egasining ehtiyojlarini servitut belgilamay turib ta'minlanishi mumkin bo'lmagan boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun servitut belgilanishi mumkin.

Ushbu normadan anglashiladiki, siz tomoningizdan gaz quvurlarini qo'shningizning yer uchastkasidan

o'tkazish talabingiz qonuniy hisoblanadi. Biroq, "O'zga shaxs bu talabingizni qondirishga majburmi?", degan savol ham bor.

Kodeksda belgilangan qoidalariga ko'ra, servitut belgilashni talab qilayotgan shaxs bilan o'zga yer uchastkasining egasi o'rtasidagi bitimga muvofiq servitut belgilanadi va u ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni ro'yxatdan o'tkazish uchun belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim.

Agarda fuqarolar o'rtasida servitutni belgilash xususida nizo bo'lsa yoki uning shartlarida murosaga kelinmasa, bahs servitut belgilashni talab qilayotgan shaxsning da'vosi bo'yicha sud tomonidan hal etiladi.

Servitut belgilangan uchastkaning egasi, agar qonunda boshqa tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, servitut kimning foydasini ko'zlab belgilangan bo'lsa, o'sha shaxsdan uchastkadan foydalanilgan uchun mutanosib haq talab qilishga haqli hisoblanadi va servitut belgilanishi yer uchastkasi egasining ushbu uchastkaga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqlaridan mahrum etmaydi.

Yuqoridagilarga ko'ra, siz va yer uchastkasi egasi o'rtasida servitutni belgilash masalasida kelishmovchilik mavjud bo'lsa, ushbu holat bo'yicha fuqarolik ishlari bo'yicha sudga murojaat qilishingiz mumkin.



Maryamxon TOSHBAYEVA, Namangan shahar adliya bo'limi davlat xizmatlari markazi yetakchi mutaxassisi



Savolga Davlatobod tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuristskonsulti Mirabbos MIRZOKIROV javob berdi

6 TA'LIM



KONSTITUTSIYAMIZNING 51-moddasida har kim ta'lim olish huquqiga ega ekani, davlat ta'limning turli shakllarini hamda davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlashi qayd etilgan.




Islohotlar davom etmoqda

Mazkur normadan kelib chiqib aytish mumkinki, hozirda yangi tashkil etilgan institut va filiallar hisobidan yurtimizda



oliy ta'lim tashkilotlari soni **210** taga yetdi, shundan:



Oldingi tahrirdagi Konstitutsiyada nodavlat ta'lim tashkilotlarining o'ri va mavqei ko'rsatilmagan edi. Yangi tahrirdagi Asosiy qonunda esa ularning ham alohida huquqiy maqomi belgilab berilishi hamda ularga bir qator soliq va boshqa imtiyozlarning taqdim etilishi bilan oliy ta'limga bo'lgan ehtiyoj to'ldiriladi.

Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni asosida oliy ta'lim tizimini rivojlantirish borasida bir qator ishlar olib borilmoqda.

MASALAN

Adliya vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalarida tahsil olayotganlar soni:



Toshkent davlat yuridik universitetida ta'limning kunduzgi, sirtqi, masofaviy shaklida
7 ming 52 nafar



yuridik texnikumlarda
4 ming 495 nafar



akademik litseyda
467 nafar o'quvchi

Toshkent davlat yuridik universitetida tahsil olayotgan aksariyat talabalarga Konstitutsiyamizning 51-moddasida qayd etilgan davlat oliy ta'limni davlat hisobidan, ya'ni grant asosida shuningdek, qonunosti hujjatlari asosida turli xil toifa va yo'nalishlarga berilgan imtiyozlardan foydalangan holda ta'lim olish imkoniyati taqdim etilmoqda.

Shuningdek, universitetda Konstitutsiyaga muvofiq akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi


huquqidan hamda boshqa qonunosti hujjatlariga asosan berilgan huquqlardan foydalangan hamda o'quv yo'nalishlari va mutaxassisliklari xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim olish shaklini belgilash, magistratura bosqichida ta'limning sirtqi, masofaviy va kechki shakllarini joriy etish, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar bo'yicha qo'sh malakalar berish tizimini joriy qilish, to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish borasida yutuqlarga erishilmoqda.

Universitet akademik mustaqillik sohasida o'quv rejalari, o'quv dasturlari, malaka talablarini kasbiy standartlar asosida tasdiqlash, ta'lim tilini hamda ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim olish shaklini belgilamoqda. O'zaro kelishuvlar asosida oliy ta'lim muassasalari bilan akademik mobillikni amalga oshirishda TDYUning hamkor xorijiy ta'lim tashkilotlari bilan jami 78 ta anglashuv memorandum imzolangan. Shundan 67 ta xorijiy oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari hamda 11 ta xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan amalda bo'lgan shartnoma, kelishuv va memorandumlar yuzasidan talabalarining almashinuv o'quv dasturlari amalga oshirilmoqda.

Toshkent davlat yuridik universiteti moliyaviy mustaqillik berilgan oliy ta'lim tashkilotlaridan biri sifatida budjetdan mablag' olishni cheklab, to'lov-kontrakt va boshqa xizmatlar evaziga o'z moliyaviy barqarorligini ta'minlab kelmoqda.

Ta'lim dargohida o'tgan yilda to'lov-kontrakt shaklidan daromadi 145 milliard 694 million 712,0 ming so'm va bo'sh turgan mablag'lardan oqilona foydalanish maqsadida depozitga qo'yilgan mablag'lar foizidan 14 milliard 255 million 326,0 ming so'm, jami daromadi 159 milliard 950 million 38,0 ming so'mni tashkil etgani ham o'z mablag'larining erkin sarflanishi uchun kafolat bo'lib xizmat qilayotgan Konstitutsiyaning 51-moddasining amaliy va hayotiy ifodasi, desak adashmagan bo'lamiz.

Xulosa qilib aytganda, yangi tahrirdagi Asosiy qonun ta'lim sohasidagi islohotlarning huquqiy poydevori bo'lib xizmat qiladi va aholining umidlarini oqlaydi.



Qurilishda xavfsizlikka RIOYA QILING!



MAMLAKATIMIZ bo'ylab qurilish va bunyodkorlik ishlari jadal sur'atlarda olib borilmoqda. Ana shu jarayonda favqulodda vaziyatlar sodir bo'lishining oldini olish juda muhimdir. Yong'inlar hamda boshqa favqulodda vaziyatlar sodir bo'lishining oldini olish maqsadida qurilish-rekonstruksiya qilish ishlarini belgilangan tartib-qoidalar asosida olib borish talab etiladi.

Birinchi navbatda, tashqi yong'inlarni o'chirish uchun suv sarfi hisobga olinishi zarur. Buning uchun, avvalo, yer osti sig'irlari (rezervuarlar) barpo qilinishi kerak. Agarda ular mavjud bo'lsa, doimo suv bilan to'ldirilgan holatda bo'lishi zarur. Suv sig'irlaridan yong'in o'chirish avtomobillari suv olishi uchun belgilangan hududda ho'l va quruq quduqlar bo'lishi shart. Shuningdek, yong'in o'chirish avtomobillari suv olishi uchun 12x12 metr qattiq qoplamali maydon tashkil qilingan bo'lishi kerak.

Bundan tashqari, yong'in sodir bo'lganda odamlarni va moddiy boyliklarni evakuatsiya qilish, binolarni va hududni tark etish rejalari (sxemasi) hamda xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning majburiyatlari ham ishlab chiqilishi lozim.

Yong'in sodir bo'lganda ishchi-xizmatchilarga xabar berish va ularni evakuatsiya qilish, yuqori tovushli xabar berish moslamalarini yoqish va ishlatish tartibi bo'yicha Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan hamkorlikda amaliy mashq-mashg'ulotlari o'tkazilib turilishi zarur.

Hududga yong'in-qutqaruv avtomobillari kirib-chiqishi uchun kengligi 5 metrdan kam bo'lmagan darvoza (yo'lak) bo'lishi kerak. Agar ushbu obyektlar hududi bir gektardan ortiq bo'lsa, hudud relyefiga qarab bir nechta kirish joylari tashkil etilishi mumkin. Lekin ularning soni ikkidan kam bo'lmashligi lozim. Ish vaqtida qurilish hududiga kirish darvozalari va binoga borish yo'llari doimo ochiq bo'lishi lozim.

Binolar, inshootlar, omborlar, yong'inga qarshi suv manbalarining joylashuvi, ularga yong'in-qutqaruv avtomobillarini olib boruvchi yo'llar, yong'inni o'chirishning birlamchi vositalari o'rnatilgan joylar, shuningdek, ishchi-xizmatchilarning yurish va o'tish yo'laklari ko'rsatilgan sxemalar ishlab chiqilgan bo'lishi kerak.


Unutmang, olov tilsiz yovdir. Hushyorlik esa o'z qo'limizda. Yuqoridagi kabi favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ishlari amalga oshirilsa, yong'inlar hamda boshqa favqulodda vaziyatlarning oldini olgan bo'lar edik.



Alimardon SHOKIRJONOV, Husniddin TUROPOV, Andijon viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi xodimlari



Kozimbek G'OZIYEV, Toshkent davlat yuridik universiteti Ma'muriy va moliya huquqi kafedrasini o'qituvchisi



ONA ONALIK HUQUQIDAN MAHRUM QILINDI

FARZAND Yaratganning eng ulug' va bebaho in'omidir. Bola kulsa, ona shod, o'g'il-qizi sog' bo'lsa, onalar baxtiyordir. O'zi yemay farzandiga beradigan, tuni bilan mijja qoqmay bolasiga parvona bo'ladigan onalar har qancha maqrov va e'zozga loyiqdir. Lekin bu hayotning turli sinovlari bardoshini sindirgan, oqibatda taqdirning zarbalariga yengilgan ayollar ham yo'q emas. Yaqinda sudda xuddi shunday ayolga tegishli ish ko'rib chiqildi va u uch farzandining tarbiyasiga, hayotiga mas'uliyatini unutgani uchun onalik huquqidan mahrum qilindi.

Sudga Ohangaron tuman hokimligi Bolalar-ni himoya qilish shu'ba'si voyaga yetmaganlar manfaatli yuzasidan da'vo ariza bilan murojaat qildi. Unda bildirilishicha, Ohangaron tuman Ichki ishlar bo'limining xatiga asosan "Uvak" MFY, Mustaqillik ko'chasida yashovchi fuqaro J.D. ismli fuqaro uch nafar voyaga yetmagan farzandini muntazam ravishda nazoratsiz, kek-sa yoshdagi otasi qaramog'iga qoldirib, o'zi spirtli ichimliklarni iste'mol qilgan holda uyd-an ketib qolishini bildirgan. Shuningdek, ayol muqim bir mehnat faoliyati bilan shug'ullan-masligi, tilanchilik qilib kun kechirishi, bolalarini umuman parvarish qilmasligi aytilgan. Ariza-da qayd etilishicha, ayolning farzandi 2-sinf-da o'qisa ham 2022-2023 – o'quv yilida biror marta maktabga bormagan. Ikki nafar qizi esa onasi bilan ko'chalardagi maishiy chiqindilarni to'plab, sotib, kun kechirgan.

Sayyor sud majlisida da'vogar Ohangaron tuman hokimligi Bolalar-ni himoya qilish shu'ba-si mudiri A.N. da'vo arizani to'liq quvvatlab, javobgar J.D. o'zi dunyoga keltirgan farzandlar-ning tarbiyasi, gigiyenasi va moddiy ta'minoti bilan umuman shug'ullanmasligini, javobgar bilan o'tkazilgan tushuntirish ishlari natija bermaganini aytib o'tdi. Shuningdek, javobgar hech qayerda ishlamasligini, uzoq vaqt davomida uyga kelmasligini, spirtli ichimliklar iste'mol qilgan holda begona kishilar bilan uchrashib, aloqada bo'lishini bildirdi. Shu sababli voyaga yetmagan bolalarning ijtimoiy maqomini belgi-lash va davlat ta'minotiga o'tkazilishi, javob-gar onalik vazifalarini bajarish uchun uni onalik huquqidan mahrum qilish lozimligini bayon qildi. Da'vogar suddan da'vo talabini qanoatlantirishni, javobgarni onalik huquqidan mahrum qilishni va bolalarning ta'minoti uchun aliment undirishni so'radi.

Fuqarolik protsessual kodeksining 280-mod-dasiga asosan javobgar J.D. sud muhoka-masining vaqti va joyi to'g'risida belgilangan tartibda ikki marta xabardor qilinganiga qara-masdan, sud majlislariga kelmagan va e'tiroz bildirmagan uchun sud ishni javobgar ishtiro-kisiz sirdan ko'rib chiqishni lozim topdi.

Dastlabki sud majlisida Ohangaron shahar prokurorining yordamchisi da'vo arizani quv-vatlab, suddan da'vo talabini qanoatlantirishni va javobgarni onalik huquqidan mahrum qilgan holda, voyaga yetmagan bolalarni "Muruvvat uyi"ga joylashtirish hamda ularning ta'minoti uchun aliment undirishni so'radi.

Sayyor sud majlisida uchinchi shaxs sifatida jalb qilingan J.J. o'z tushuntirishida javobgar-

ning otasi qizining xulq-atvori va turmush tarzi notinchligini, bolalarning ta'lim olishi, tarbiyasi va moddiy ta'minoti bilan umuman shug'ul-lanmasligini, farzandlarini uni qaramog'iga tashlab ketganini, kek-sa yoshdagi va pensi-yasi kamligi sababli bolalarni parvarish qilish va ta'minlashga imkoni yo'qligini, sog'lig'i yo-monligi uchun bolalarni nazorat qila olmasli-gini, shu bois bolalarni davlat muassasasiga joylashtirishga e'tirozi yo'qligini, uy sharoiti yo-monligi va nabiralarning yashashi uchun talab darajasida emasligini bildirdi.

Sayyor sud majlisida so'ralgan uchinchi shaxs sifatida jalb qilingan "Uvak" mahallasi raisi o'z tushuntirishida javobgar J.D. bilan tu-shuntirish olib borilganini, lekin natijasi bo'lma-ganini, uning oilasi notinch bo'lib, doimiy janjal-lar va kelishmuvchiliklar bo'layotganini, voyaga yetmagan bolalarning ta'lim-tarbiyasi, moddiy ta'minoti masalasi bo'yicha choralar ko'rilma-ganini bildirdi.

Shuningdek, sayyor sud majlisida Ohanga-ron tuman 47-umumta'lim maktabi direktori-ning o'rinbosari X.O.ning, Ohangaron tuman IIB profilaktika inspektori X.U.ning va boshqa mas'ullarning ham ko'rsatmalari tinglandi.

Sud da'vogar vakili va uchinchi shaxslar-ning bayonotini tinglab, guvohlarning ko'rsat-malarini hamda ish hujjatlarini o'rganib chiqdi va yakuniy xulosaga keldi. Oila kodeksining 73, 79-moddalariga asoslanib, sud javobgar-ni onalik majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlagani, o'z bolalariga g'amxo'rlik qilmasli-gi va moddiy ta'minlamasligini, bolalarning ma'naviy tarbiyasi, jismoniy rivojlanishi, ta'limi bilan shug'ullanmasligi, shuningdek, javob-garning voyaga yetmagan qizlarining hayoti va daxlsizligiga xavf tug'diruvchi xulq-atvorda bo'lgani holatlari taqdim etilgan hujjatlar bilan o'z isbotini topgan deb hisobladi.

Sud qayd qilingan holatlar da'voni to'liq qanoatlantirish uchun jiddiy asos ekanini ino-batga olib, bunday holatda voyaga yetmagan bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatleri, hayoti, sog'lig'i, xavfsizligi va ruhiyatini himoya qilish maqsadida da'vogarning da'vo talabini sirdan qanoatlantirishni va javobgarni voya-ga yetmagan farzandlariga nisbatan onalik huquqidan mahrum qilishni lozim topdi. Shu-ningdek, sud da'vogarning aliment undirish haqidagi da'vo talabini muhokama qilib, javob-gar hisobidan voyaga yetmagan farzandlar-i-ning ta'minoti uchun ½ qismda aliment undi-rishni lozim topdi.

YAQIN-YAQINLARGACHA yoz boshlangan pallada bir toifa firibgarlar g'imirlab qolishar va farzandiga tuzukroq bilim berish o'rni-ga pora evaziga bo'lsa-dal-oliy o'quv yurtiga joylab qo'yish harakatida yurgan ota-onalarni tuzoqqa tushirish payida bo'lishar edi. U zamonlar ortda qoldi, hisob. Ammo bizning "qahramonimiz" o'sha usulning biroz o'zgargan shaklida omadini sinab ko'r-di, chog'i.

FIRIBGAR

TALABA



2020-yildan boshlab qo'shni Tojikiston Respublikasining Xo'jand davlat universitetida sirdan o'qiyotgan O'ktam Safarov (ism-shariflar o'zgartirilgan) tinchgina qurilish-ta'mirlash ishlari bilan shug'ullanib yurgan edi. 19 yoshli yigit uchun nima kerak? Oliy ta'lim muassa-sasida o'qiyotgan bo'lsa, tayinli ishi, qo'lida hunari bor bo'lsa. Yo'q, bular unga kamday tuyuldi.

Hammasi qurilishda birga ishlayotgan tanishining undan Xo'jand-dagi universitetga o'qishga kirish uchun yo'l-yo'riq so'ragan kundan boshlandi. "Xo'jandda o'qiyman deganlar bo'lsa, olib kelavering. Ta-nishlarim bor, o'zim gaplashib beraman," deya arqonni uzun tashlab qo'ydi. O'qish istagidagilar ko'p kuttirmadi – sekin-asta uni yo'qlab kelishni boshlashdi.

Qurilishdagi tanishi unga universitetning pedagogika yo'nalishida ta'lim olish niyatidagi Gulmira ismli qizni ro'para qildi. O'ktam Gulmi-raning ishonchiga kirish uchun universitetdagi allaqanday tanishlari haqida oshirib-toshirib gapirib, 500-600 AQSH dollari evaziga o'qish-ga kiritib qo'yishni, kerak bo'lsa, sessiyalarini ham yopib berishini va-da qiladi. Bir muddat o'tib, Gulmira Xo'janddagi universitetda o'qishga qiziqib qolgan, faqat tahsilni 2-kursdan davom ettirmoqchi bo'lgan tutingan opasini ham ergashtirib keladi. Shohruh o'yab o'tirmay, 1 ming 500 AQSH dollari evaziga bu muammoni ham hal qilib be-rishini aytadi.

Firibgarning peshonasiga "firibgar" deb yozib qo'yilmagan, albat-ta. Ammo kimsaning maqsadini tushunib olish uchun insonga fahm, aql-idrok berilgan. O'z huquqini yaxshi bilgan odam nimaning qonun-ga to'g'ri kelishi-yu nimaning zid kelishini darhol anglaydi.

O'qishga osongina kiritib qo'yuvchi "vallomat"ning va'dalari va telefon orqali pulni tezroq yetkazib berishni qayta-qayta so'rayve-rishi Gulmira va uning opasida shubha uyg'otadi. O'yab-o'yab, bir qarorga kelgan qizlar huquqni muhofaza qiluvchi organga murojaat qilishadi.

Boyovut tuman markazidagi xiyobon. O'ktam uni kutib turgan ikki qiz tomonga yurdi. Ulardan hujjatlari solingan jild va 2 ming AQSH dollarini olgan vaqtida huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari tomonidan qo'lga olindi.

Jinoyat ishlari bo'yicha Boyovut tuman sudining ochiq sud maj-lisida O'. Safarov O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etganlikda aybdor deb topilib, unga nisbatan jazo turi va miqdorini tayinlashda uning aybiga to'liq iqrorgiligi, qilmishidan chin ko'ngildan pushaymon-ligi, talaba ekani, yoshligi va muqaddam sudlanmaganini inobatga olib, jazolarni qisman qo'shish yo'li bilan 3 yil 1 oy ozodlikni cheklash jazosini tayinlashni lozim topdi.



Bahodir QORAYEV,
jinoyat ishlari bo'yicha Boyovut tuman sudi raisi


E'OLON

Toshkent viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 11-maydagi 235-um-sonli buyrug'i bilan "OLMALIQ-HUQUQ" advokatlik byuro-si advokati Raxmanov Kamoliddin Turg'unboyevichga boshqarma tomonidan 2018-yil 17-dekabrda berilgan TS 000015-raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya aso-sida berilgan adokatlik maqomi K.Raxmanov og'ir kasalligi sababli sog'aygunga qadar 6 (olti) oy muddatga to'xtatildi.



Nargiza MAHKAMOVA,
Toshkent viloyat sudi fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati sudyasi,
Dilnoza SHOMATOVA,
fuqarolik ishlari bo'yicha Ohangaron tumanlararo sudi sudyasi

8 ADLIYA FAXRIYSI



Adolat chinorlari zavol ko'rmasin!

VATAN uchun halol xizmat qilish, yaxshi xulqli farzandlarni kamolga yetkazish, o'zidan yaxshi nom qoldirish har bir insonning eng ulug' orzu-umidlaridan biri. Inson ana shu maqsad yo'lida yuksak cho'qqilarni ko'zlab yashaydi, izlanadi, sinovlardan, dovonlardan o'tadi. Yoshi ulg'aygan sari o'tgan umrini sarhisob qilarkan, ortga nazar tashlab nimalarga erishgani, yana nimalar dilda armon bo'lib qolayotganini taftish qiladi, o'z-o'ziga hisob beradi.

Qahramonimiz Janabay Sadikovning nomini qonun ustuvorligini ta'minlash yo'lidagi mashraqqatli mehnati elga tanitdi, o'ziga, kasbiga, jamoaga talabchanligi hayotiga mazmun baxsh etdi. Bosib o'tgan har bir mehnat pillapoyasi mansab va martaba uyg'unligida yildan-yilga yuksalib bordi, uni yorug' manzillarga yetakladi, boshlagan ishlari xayrli yakun topishiga imkon yaratdi.

O'z mehnat faoliyatini 1970-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi radioeshittirish va televideniye qo'mitasida boshlagan J. Sadikov ikki yillik harbiy xizmatni o'tagandan so'ng O'zbekiston fuqarolik aviatsiyasi boshqarmasi Nukus birlashgan aviaotryadi aloqa xizmatida ma'lum muddat faoliyat ko'rsatdi. Shundan so'ng Toshkent davlat universitetini huquqshunoslik mutaxassisligi bo'yicha tamomlab, 1980-yildan boshlab Qo'ng'iro't tuman prokurori yordamchisi vazifasidan Qo'ng'iro't tuman sudi raisi lavozimigacha, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi a'zosi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi raisi lavozimigacha bo'lgan mas'uliyatli yo'llarni bosib o'tdi. Uzoq yillar odil sudlovni amalga oshirish yo'lida xizmat qildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi raisi vazifasida ishladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi qonuniylik, huquq tartibot va parlamentlararo aloqa masalalari qo'mitasi raisi, O'zbekiston Respublikasi Marka-

ziy saylov komissiyasining doimiy asosda ishlovchi a'zosi sifatida faoliyat yuritdi.

2014-yil tajribali huquqshunos J. Sadikov Qoraqalpog'iston Respublikasi adliya vazirining birinchi o'rinbosari lavozimiga tayinlandi. Bir yil o'tmay Adliya vaziri bo'ldi. Adliya tizimidagi islohotlarni hayotga tatbiq etish yo'lida bor bilim va tajribasini ishga soldi. Adliya idoralarning odamlar orasiga kirib, fuqarolarning haq-huquqlarini himoya qilish borasidagi amaliy ishlarda, huquqiy targ'ibot tadbirlarining samarasi olis qishloq va ovullargacha yetib borishini ta'minlash borasida o'ziga xos maktab yaratdi.

Katta hayot tajribasiga ega bo'lgan Janabay Sadikov qaysi lavozimda, qayerda ishlamasin, o'zining kuchli siyosatchi, tajribali huquqshunos, tashabbuskor rahbar, o'z sohasining yetuk mutaxassisi ekanini namoyon etdi. Uning mamlakat siyosiy hayotidagi beqiyos o'rni va rolini xalq deputatlari Qo'ng'iro't shahar Kengashi deputatligi hamda 1986-yildan to 2004-yilga qadar uch marta Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi deputati sifatida faoliyat ko'rsatgani bilan baholash mumkin.

U sud-huquq tizimidagi islohotlarni amalga oshirishda, mamlakatimiz hayotida muhim o'rin tutadigan yangi qonunlarni yaratish bo'yicha taklif va mulohazalar berishda ham faol ishtirok etdi. Adolatni qaror toptirish uchun sudya

nafaqat qonunni va uni qo'llashni yaxshi biladigan bilimli mutaxassis, balki ko'plab insoniy fazilatlariga ega, har qanday holatda ham vijdon amriga quloq tutadigan, o'zi chiqargan qaror bo'yicha to'la javobgarlikni his qiladigan, yuksak ma'naviyatga ega inson bo'lishi kerakligini tizim xodimlariga takrorlashdan charchamadi.

Hadisi sharifdagi "Quyosh balqigan har bir kunda ikki kishi o'rtasini adolat bilan isloh etishing — ehsondir" degan undov Janabay og'aning ham hayotiy shioriga aylandi. Sud idoralariidagi salkam 15 yillik faoliyati davomida inson adolatsizlikdan boshqa hamma narsaga chidashi mumkinligini hayot haqiqatlari misolida ko'rdi, his etdi, har bir ishga adolatli yondashishni o'zining burchi, deb bildi. Allomalarning: "Qonun — qonun bo'lgani uchun emas, balki unda adolat aks etgani uchungina qimmatlidir" degan so'zlariga amal qildi.

Janabay og'a nafaqat davlat va jamiyatda o'zining munosib o'rni topgan inson, balki katta oila ko'rg'onida ham yuksak mavqega va hurmatga sazovor. Oila saltanatida besh o'g'il, bir qiz kamolga yetdi. Ularni hayotdan, odamiyligidan, yaxshilikdan saboq berib tarbiyalagan oilaning bag'ri butun, obro'-e'tibori baland. Bugun o'z hayot yo'lini topgan, kasbidan baraka topayotgan farzandlaridan otaning ko'ngli to'q. Har bir ota uchun bu, albatta, xotirjamlik va o'ziga xos mukofotdir.

Yuksak martabalariga erishgan J. Sadikovning ko'p yillik xizmatlariga hukumatimiz tomonidan ham munosib baho berilgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Faxriy yorlig'i, Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist faxriy unvoni hamda "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlangan qahramonimizning umr yo'llari ana shunday sharafi va yorqin izlardan iborat.

Do'stlar davrasida doimo qadddi tik, el-ulus o'rtasida hamisha yuzi yorug' shunday kamtarin insonlar bor ekan, hayotning ma'nosi, yaxshilikning qimmatini ortaveradi.

Umringiz qariyib 40 yilni sud-huquq tizimiga bag'ishlagan ibratli hayot sohibi bugun qutlug' 70 yosh ostonasida. Butun umr ham insonni, ham qonunni aziz bilgan Janabay og'ani hayotidagi ajoyib kun bilan chin dildan muborakbod etar ekanizm, siz yaratgan adolat chinorlari aslo zavol ko'rmasin, umringiz chinor umridek uzoq bo'lsin, deymiz!

O'tkir HOSHIMOV



TAQDIRI AZAL

Xudo yozganini bandasi o'chirolmaydi. Xudo berganini bandasi tortib ololmaydi.

OTALAR VA BOLALAR

U oddiy odam edi. Hammolchilik qilardi. To'rt qiz, uch o'g'lini yo'qqa turg'azdi. O'g'illarini uylantirdi. Qizlarini chiqardi. Hammasini uyli-joyli qildi.

Ko'z yumayotganida "Hammalaringdan mingdan-ming roziman", — dedi...

Qarashsa, kafanligi yo'q ekan...

O'KINCH

Daraxtning meva tugishga shay turgan qanchadan-qancha gullarini bemavrid shamollar uchirib ketgani singari umrimning qanchadan-qancha onlari hasadgo'y va munofiqlar yetkazgan jarohatlardan og'rinishu, turmush ikir-chikirlarini o'ylash bilan besamar o'tayotganiga o'kinaman...

"TABIAT GULTOJI"

Kiyik och qolmaslik uchun ko'kat yeydi. Ammo bir-birini o'ldirmaydi. Sher och qolmaslik uchun kiyikni yeydi. Ammo bir-birini o'ldirmaydi. Odam ko'katni ham yeydi. Kiyikni ham yeydi. Ko'ngil xushi uchun sherni ham o'ldiradi... Keyin... urush qilib, bir-birining boshini yeydi...

CHEGARAR

Odamoto nima uchun kaftdek hovlisiga gul ekadi? Undan ko'ra sholg'om eksen, qozoniga tushadi-ku. Odamoto nima uchun bulbul chax-chaxini eshitganda entikib ketadi? Undan ko'ra bulbulni sho'rvaga solib pishirsa, nafsini qondiradi-ku. Odamoto nima uchun osmondan charaqlab yotgan yulduzlarni ko'rib, ko'ngli zavvqa to'ladi? Yulduzlar uning hamyonidagi tillalar emas-ku. Odamoto nima uchun kitob o'qiyotib, suyuqli qahramoni o'lib qolsa yig'laydi? Uni yozuvchi "ichidan to'qib chiqargani"ni biladi-ku? Odamoto nima uchun o'zga yurtlarga borib behisob mol-dunyoy orttirsayu, ittifoqo bolaligi kechgan kulbasi tushiga kirib qolsa, tuni bilan yig'lab chiqadi? Axir u shohona qasrda yashaydi-ku. Odamoto nima uchun bolasining boshida alla aytadi? Go'dak alla eshitmasa uxlamaydimi? Odamoto nima uchun nevarasini yetaklab necha zamon avval o'tib ketgan bobosining qabrini ziyorat qiladi? Marhum ularni ko'rmaydi-ku?!

Gap shundaki, Odamotozni hayvonotdan ajratib turadigan chegara bor. Bu chegaraning nomi ma'naviyat deb ataladi!

"Daftar hoshiyasidagi bitiklar"dan

Marusa HOSILOVA, "Inson va qonun" muxbiri

INSON va qonun

MUASSIS: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI

Adolat milliy huquqiy axborot markazi nashri info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0081-raqam bilan ro'yxatga olingan



Bosh muharrir Asiddin ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov
Furqat Tojiyev
Xayotjon Klichev
Sevara O'rinboeva
Yorbek Iskandarov
Dilfuza Ergasheva

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriiz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Nabatchi Gulbahor Ortixo'jayeva
Sahifalovchi-dizayner Jamshid G'ofurov

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter bazasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy

Tiraji — 3500
Buyurtma — 2399

Topshirish vaqti — 19:00
Topshirildi — 20:00

MANZILIMIZ:

100115, Toshkent sh. Amir Temur shohko'chasi 19-uy.

Faks: (71) 233-28-18

Obuna bo'limi: (71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5